TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

## 2023-YIL YANVAR- MART




*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan koʻrsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni oʻz ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar koʻrsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmogʻidir.

## 2023-yilning 1-aprel holatiga koʻra, xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumot

*(fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)*

**6067 ming birlik** — Xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**75,6 %** — Xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlarning ulushi

**105,3 %** — Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati

**2023-yilning 1-aprel** holatiga koʻra, Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni **8026** ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **6067** ming birlik korxona va tashkilotlar faoliyat koʻrsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **75,6** % ni tashkil etdi. Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati **105,3** % ni tashkil etgan.

**Xizmatlar** – iste’molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** ma’lum vaqt davomida iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

**Toshkent shahar bo‘yicha xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi** *(yanvar-mart oylarida)* [1)]




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, **2023- yilning yanvar- mart oylarida** bozor xizmatlari hajmi **36562,4** mlrd.so‘mga yetdi. **2022- yilning yanvar-mart oylariga** (**119,8** %) nisbatan o‘sish sur’ati **114,6** % ni tashkil etgan.

*[1)] Bu va bundan keyingi ko‘rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko‘rib chiqilgan*

## Tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari

*(2023- yil yanvar - mart oylarida)*

|  | **Hajmi,** *mlrd. soʻmda* | **Ulushi,** *% da* | **Oʻsish sur'ati,** *% da* |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahar | **36 562,4** | **100,0** | **114,6** |
| Uchtepa | 2 037,6 | 5,6 | 108,0 |
| Bektemir | **1 254,6** | **3,4** | **110,3** |
| Yunusobod | 5 880,3 | 16,1 | 119,2 |
| Mirzo Ulugʻbek | 3 678,2 | 10,1 | 119,9 |
| Mirobod | 3 952,5 | 10,8 | 108,8 |
| Shayxontohur | 4 042,4 | 11,1 | 117,9 |
| Olmazor | 2 942,9 | 8,0 | 111,0 |
| Sergeli | 1 883,1 | 5,2 | 121,4 |
| Yakkasaroy | 3 139,2 | 8,6 | 111,0 |
| Yashnobod | 3 204,4 | 8,8 | 115,1 |
| Yangihayot | 588,1 | 1,6 | 115,6 |
| Chilonzor | 3 959,1 | 10,8 | 113,2 |

*[1] tumanlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

## Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari *(yanvar-mart oylarida)*




**2023-yilning yanvar-mart** oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **12321,8** ming so‘mga yetdi. **2022-yil yanvar- mart oylariga** nisbatan o‘sish sur’ati **110,9** % ni tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar
*(2023-yil yanvar- mart oylarida)*

| | Hajmi, ming. so‘mda | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **12 321,8** | **110,9** |
| Uchtepa | 6 920,7 | 105,2 |
| Bektemir | 22 281,4 | 101,2 |
| Yunusobod | 15 967,8 | 116,5 |
| Mirzo Ulug‘bek | 11 351,8 | 116,4 |
| Mirobod | 26 384,3 | 106,3 |
| Shayxontohur | 11 191,4 | 116,0 |
| Olmazor | 7 430,1 | 108,3 |
| Sergeli | 11 550,0 | 109,8 |
| Yakkasaroy | 24 571,4 | 108,0 |
| Yashnobod | 11 002,4 | 110,5 |
| Yangihayot | 3 613,7 | 108,3 |
| Chilonzor | 14 533,3 | 111,1 |

**2023-yilning yanvar- mart** oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **34,0** % ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari **10,0** %, savdo xizmatlari **21,3** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **10,1** %, ta’lim xizmatlari **4,4** % darajasida qayd etildi. Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **2,4** % darajasida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi**
*(2023- yil yanvar- mart oylarida, % da)*




***Taqqoslash uchun:*** **2022-yilning yanvar- mart** oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **32,4** % ni, me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **2,5** % ni tashkil etgan.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari *(2023- yil yanvar- mart oylari)*

| | **Hajmi,** *mlrd. so‘mda* | **Ulushi,** *% da* | **O‘sish sur’ati,** *% da* |
|---|---|---|---|
| **Xizmatlar – jami** | **36 562,4** | **100,0** | **114,6** |
| *shu jumladan:* | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 36 89,2 | 10,1 | 117,3 |
| Moliyaviy xizmatlar | 12 447,9 | 34,0 | 119,9 |
| Transport xizmatlari | 3 640,5 | 10,0 | 125,5 |
| *shu jumladan: avtotransport xizmatlari* | 1 904,3 | 5,2 | 112,4 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 1 393,8 | 3,8 | 110,6 |
| Savdo xizmatlari | 7 781,5 | 21,3 | 105,8 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 1 287,8 | 3,5 | 110,9 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 1 606,5 | 4,4 | 117,4 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 7 48,7 | 2,0 | 102,6 |
| Ijara xizmatlari | 5 30,6 | 1,5 | 115,6 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 1 91,7 | 0,5 | 105,3 |
| Shaxsiy xizmatlar | 436,3 | 1,2 | 103,5 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 870,8 | 2,4 | 108,8 |
| Boshqa xizmatlar | 1 937,2 | 5,3 | 109,6 |

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar** *( yanvar- mart oylarida)*




Moliyaviy xizmatlar hajmi **4 583,1** mlrd. so‘mga oshib, **12 447,9** mlrd. so‘mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **34,0** % ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o‘sish sur’ati **119,9** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**

*(2023- yil yanvar-mart oylarida)*

**2023- yilning yanvar-mart oylarida** moliyaviy xizmatlar tarkibida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,7** % ni tashkil etdi.



| **Tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi** *(2023- yil yanvar- mart oylarida,% da)* | *Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar* | *Sug'urta bo'yicha xizmatlar* | *Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **86,8** | **5,2** | **8,0** |
| Uchtepa | 84,3 | 0,4 | 15,3 |
| Bektemir | 99,5 | 0,5 | 0,0 |
| Yunusobod | 98,2 | 1,1 | 0,7 |
| Mirzo Ulug'bek | 96,9 | 2,8 | 0,3 |
| Mirobod | 97,9 | 0,7 | 1,5 |
| Shayxontohur | 99,4 | 0,2 | 0,3 |
| Olmazor | 86,3 | 0,7 | 13,0 |
| Sergeli | 78,1 | 0,2 | 21,7 |
| Yakkasaroy | 32,9 | 10,2 | 56,8 |
| Yashnobod | 98,1 | 0,2 | 1,7 |
| Yangihayot | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Chilonzor | 92,8 | 0,9 | 6,3 |

**Tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi** *(2023- yil yanvar-mart oylarida, mlrd. so'mda)*

| | |
|---|---|
| **Toshkent shahar** | **12447,9** |
| Uchtepa | 579,6 |
| Bektemir | 146,5 |
| Yunusobod | 2655,1 |
| Mirzo Ulug'bek | 1459,0 |
| Mirobod | 1157,2 |
| Shayxontohur | 1481,7 |
| Olmazor | 592,1 |
| Sergeli | 460,0 |
| Yakkasaroy | 1012,8 |
| Yashnobod | 1513,6 |
| Yangihayot | 140,3 |
| Chilonzor | 1250,1 |

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1-aprel** holatiga koʻra, tashish va saqlash bilan bogʻliq faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **20 207** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **5,3** % ini tashkil etdi. Ulardan **19 991** birlik (**98,9** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida** transport xizmatlari hajmi **2 644,5** mlrd. soʻmni tashkil etib, **2022-yil yanvar- mart oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish sur’ati **117,4** % ni tashkil etdi.

**Transport xizmatlari** *(yanvar-mart oylarida)*




**Turlari boʻyicha transport xizmatlarining tarkibi**
*(2023- yil yanvar- mart oylarida)*



**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

**2023- yilning yanvar- mart oylarida** avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 904,3** mlrd. so‘mga yetdi.

## Avtomobil transporti xizmatlari *(yanvar-mart oyilarda)*




**2022-yil yanvar-mart oylariga** nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **4,2** % ga pasayganligi qayd etildi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **10,6** %ni tashkil etdi.

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo‘lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **59,6** %.

***Taqqoslash uchun:*** **2022- yil yanvar- mart oylarida** ushbu ko‘rsatkich **59,0** % ni tashkil etgan.

## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

| | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|
| Yuk | 40,9 % | 41,0 % |
| Yo‘lovchi | 30,4 % | 30,5 % |

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**2023- yilning 1- aprel** holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarning ulushi (**46,4** % yoki **177,0** ming birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **99,6** % ini (**176,3** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

**Savdo xizmatlari** *(yanvar-mart oylarida)*




**2022- yilning yanvar-mart oylariga** nisbatan **2023- yil yanvar-mart oylarida** savdo xizmatlari hajmi **1 581,2** mlrd. so‘mga oshib, **7 781,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-mart oylariga** nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **2,0** % ga oshganlagi qayd etildi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlarining ulushi **43,6** % ni tashkil etdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi *(2023-yil yanvar-mart oylarida)*

**Savdo xizmatlari**

- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar — **43,6 %**
- Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlari — **48,5 %**
- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar — **7,9 %**

## Tumanlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi

*(2023- yil yanvar-mart oylarida, % da)*

| | *Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar* | *Ulgurji savdo xizmatlari* | *Chakana savdo xizmatlari* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahar** | **7,9** | **48,5** | **43,6** |
| Uchtepa | 3,1 | 27,7 | 69,1 |
| Bektemir | 7,5 | 7,9 | 84,6 |
| Yunusobod | 14,0 | 55,2 | 30,8 |
| Mirzo Ulug'bek | 3,8 | 70,7 | 25,5 |
| Mirobod | 14,1 | 46,0 | 39,9 |
| Shayxontohur | 5,8 | 33,7 | 60,5 |
| Olmazor | 3,0 | 57,1 | 39,9 |
| Sergeli | 25,5 | 64,5 | 10,0 |
| Yakkasaroy | 6,1 | 106,5 | 12,6 |
| Yashnobod | 5,6 | 60,7 | 33,7 |
| Yangihayot | 11,1 | 11,7 | 77,2 |
| Chilonzor | 5,0 | 33,1 | 61,9 |

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1-aprel** holatiga koʻra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **11,9** ming birlikka yetdi, shundan **11,5** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari boʻlib hisoblanadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari *(yanvar-mart oylarida)*




**2023- yilning yanvar-mart oylarida** aloqa va axborot-lashtirish xizmatlari hajmi **3 689,2** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, **2022- yilning yanvar-martiga** nisbatan oʻsish surʼati **119,9** %ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi
*(2023- yil yanvar-mart oylarida)*

- Telekommunikatsiya xizmatlari – **45,1** %
- Kompyuterda dasturlashtirish boʻyicha xizmatlar – **12,2** %
- Axborot xizmatlari – **13,5** %
- Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **29,1** %

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog‘i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o‘xshash boshqalar kiradi.

**Ta’lim sohasidagi faoliyat**ni amalga oshirishda masofaviy o‘qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Ta’lim sohasidagi xizmatlar** *(yanvar-mart oylarida)*




**2023- yil yanvar-mart oylarida** ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 606,5** mlrd. so‘mga yetdi. **2022- yil yanvar- mart oylariga** nisbatan o‘sish sur’ati **117,4** % ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-mart oylarida** ularning ulushi **52,8** % ni tashkil etdi.

**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko‘rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1-aprel** holatiga ko‘ra sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **11 442** birlikni tashkil etdi, shundan **9 822** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar *(yanar-mart oylarida)*




**2023- yil yanvar-mart oylarida** sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi **748,7** mlrd. so‘mni yoki ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

*(2023- yil yanavr-mart oylarida, mlrd. so‘mda)*

| | |
|---|---|
| **Toshkent shahar.** | **748.7** |
| Uchtepa | 53.5 |
| Bektemir | 35.6 |
| Yunusobod | 78.6 |
| Mirzo Ulug‘bek | 89.3 |
| Mirobod | 41.9 |
| Shayxontohur | 74.6 |
| Olmazor | 102.6 |
| Sergeli | 51.3 |
| Yakkasaroy | 76.0 |
| Yashnobod | 54.4 |
| Yangihayot | 10.6 |
| Chilonzor | 80.4 |

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1-aprel** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **35 065** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **34 901** birlik kichik biznes subyektlaridir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar *(yanvar-mart oylarida)*

**2022- yil yanvar-mart oylariga** nisbatan **2023- yil yanvar-mart oylarida** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **5,7** mlrd. so'mga oshib, **1393,8** mlrd. so'm-ni tashkil etdi.




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**

*(2023- yil yanvar- mart oylarida)*



**Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni** ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

## Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar *(yanvar-mart oylarida)*




**2023- yilning yanvar-mart oylarida** ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi **1 287,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **3,5** % ni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-mart oylariga** nisbatan o‘sish sur’ati **103,4** % ni tashkil etgan.

### *Tumanlar kesimida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi*

*(2023- yil yanvar-mart oylarida, mlrd. so‘mda)*

| | |
|---|---|
| **Toshkent shahar.** | **1287.8** |
| Uchtepa | 106.8 |
| Bektemir | 30.3 |
| Yunusobod | 153.8 |
| Mirzo Ulug‘bek | 147.5 |
| Mirobod | 91.7 |
| Shayxontohur | 107.5 |
| Olmazor | 130.4 |
| Sergeli | 67.0 |
| Yakkasaroy | 104.2 |
| Yashnobod | 73.6 |
| Yangihayot | 32.1 |
| Chilonzor | 243.1 |

[1)] *tumanlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda*

Ijara xizmatlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Ijara xizmatlari** *(yanvar-mart oylarida)*




**2022- yil yanvar-mart oylariga** nisbatan ijara xizmatlari hajmi **129,9** mlrd. so‘mga oshib, **2023- yil yanvar-mart oylarida 530,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,5** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar- mart oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **57,4** % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to‘lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste’molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo‘lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog‘liqdir.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 71-203-88-15 (25)**